

BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING NUTQINI O’STIRISH YO’LLARI, SINIF RAHBARINING VAZIFALARI

Yo’ldosheva Nazokat Ulug’bek qizi

Surxondaryo viloyati Termiz tumani 13-sonli maktab

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Yoqubov Erali Yusubali o’g’li

Surxondaryo viloyati Termiz tumani 13-sonli maktab

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Anotatsiya – Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o’zaro aloqa va xabar, o’z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O’quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir.

Kalit so’zlar: nutq, og’zaki va yozma nutq, kichik yoshdagi bolalar, boshlang’ich sinf o’quvchilari, nutq rivojlanish bosqichlari.

Nutq deganda so’zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslini olganda – chi, nutq – bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo’lib hisoblanadi. Nutq bu har bir insonga Olloh tomonidan berilgan inoyatdir. Nutq orqali insonlar o’z fikrini bildiradilar, ishlarini yuritadilar, yosh bolalar o’z istaklarini bildiradilar, o’quvchilar uchun esa nutq maktabda yaxshi ta’lim olishi uchun xizmat qiladi. O’quvchilarning og’zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, ularning mutanosibligini ta’minlashda, milliy tilning tabiati va o’ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda to’g’ri talaffuz bilan o’qishning amaliy ahamiyatini o’stirish, o’qish, o’qish metodlarini takomillashtirish yo’llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Lekin ba’zi kichik yoshdagi bolalar, boshlang’ich sinf o’quvchilari, hattoki, katta yoshdagi insonlarda ham nutqi bilan muammolar yuzaga keladi. Bu muammolarni, qiyinchiliklarni yengib o’tishlari uchun boshlang’ich sinf o’quvchilariga ota-onalarning va sinf rahbarlarning e’tiboriga muhtoj. Lekin o’qituvchilarning ko’pchiligi og’zaki nutqning hayotiy ahamiyatini hali ham yetarli tushunmayaptilar. Shuning uchun ular maktab maxsus og’zaki nutq o’stirish mashqlari o’tkazishga muhtoj emas, deb hisoblab xato qilmoqdalar. Bunday o’qituvchilar, o’quvchi mukammal, bexato yozishni o’rganib borsa, ularning nutqi o’z-o’zidan o’sib boradi, deb hisoblab amalda og’zaki va yozma nutqning aloqadorligini unutib qo’yadilar. O’quvchilarning nutqi mazmun jihatdan nihoyatda kambag’al va qator kamchiliklarga ega. Chunki yuqori sinflarda o’qituvchi nutq masalasiga e’tibor

bermaydi. Shuning uchun o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqiy tafakkurni o'stirish, nutq madaniyatini shakllantirish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir o'quvchining bilim olishiga, nutqi o'sishiga, uning xulqiga va boshqalarga alohida e'tibor qaratishi lozim deb hisoblayman. Chunki bejizga dono xalqimiz: “Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqshdir” deb ta'kidlashmagan.

Nutqni o'stirish uchun ota-onalar ham o'z farzandlari bilan ko'proq suhbatlashishlari, ular bilan fikr almashishlari, ularni tinglashlari zarur. Nutqni o'stirishda ota-onalar birinchi navbatda, farzandlariga so'zlarni to'liq va ravon talaffuz qildirishlari lozim. Chunki deyarli barcha ota – onalar farzandlari qiynalmasliklari uchun so'zlarni qisqartirib, yosh bolalarga oson tarzda talaffuz qildirishadi. Bu katta xato. Sababi shundaki, yoshlikdan insonning aqliy, jismoniy va nutqiy a'zolari shakllana boshlaydi, agar o'sha davrda bolalarga e'tibor berilib, ular bilan ko'proq shug'ullanilsa, nutqida kamchiliklar kuzatilmaydi.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o'qish darslari nutq o'stirish ta'lim – tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir. To'g'ri va ifodali gapirish har bir o'qimishli kishi uchun hayotiy zaruriyat bo'lib qolgan hozirgi davrda o'quvchilarning nutqini o'stirish muammosi o'quv-tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biri deb qaralmog'i kerak. Shuning uchun ham olimlar B.I.Sokolov, M.A.Ribnikova, K.B.Baxrin va boshqalarning metodik asarlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'zaro muvofiq holda o'stirish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kelajagimiz bo'lgan yoshlarning erkin fikrlovchi, barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish zarur. Ularning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o'rganib, o'zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashida to'siq bo'ladigan salbiy psixologik holarlarni aniqlash va bartaraf etish lozim. Barcha ma'naviy axloqiy fazilatlarining poydevori, tushunchalari, ko'nikmalri bolalikdan tarkib toptirilmagagina, bu poydevor barqaror bo'ladi. Ma'naviy axloqiy fazilatlar tarkibida nutq, muloqot, munosabat madaniyati alohida o'rin tutadi. O'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu o'qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan

hisoblanadi. O’qituvchi o’z nutqining bolalarga qanday ta’sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo’lganini hisobga olishi kerak. Aagar bolalar darsga e’tiborsiz o’tirsalar, demak, o’qituvchi nutqining ta’siri kuchi sust. O’qituvchining mahorti shundaki, u o’zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta’lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalar ro’yxati:

1. Qosimova K. Ona tili o’qitish metodikasi. – Toshkent 2009
2. R.N.Nurmatov, X.N.Muzaffarova, G.X.Temurova. Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi, logopediya. O’quv-metodik qo’llanma. – Jizzax 2009
3. ziyonet.uz